

**SUD TIBBIYOTI TEKSHIRUVLARNING PROTSESSUAL
ASOSLARI VA METODOLOGIYASI**

*ANDIJON DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI PATOLOGIK ANATOMIYA VA
SUD TIBBIYOTI KAFEDRASI ASSISTENTI
NAUMANOV MASHRABJON MAXMUDOVICH*

Annotatsiya: Sud tibbiyoti dastavval huquqshunoslik talablarini qondirishga ehtiyoj borligi sababli paydo bo'ldi va rivojlandi. Huquqshunoslikning amaliy, nazariy masalalari va vazifalariga oid qidiruv, tergov hamda sud yurgizish jarayonlari davomida vujudga kelgan savollarga javoban ilmiy-amaliy asosga ega bo'lgan tekshirishlar xulosasi sud tibbiyoti ekspertizasi mohiyatini tashkil etadi. Sud tibbiyoti eksperti ekspertiza ishlarini olib borish uchun jinoiy va jinoiy protsessual fuqarolik kodeksi, fuqarolik protsessual kodekslarini puxta bilishi lozim. Ekspert o'z oldiga qo'yilgan vazifalarni to'g'ri tushunishi, o'z huquqi, burchini anglashi hamda sud ishlarini yurgizish jarayonida o'z o'rnini bilishi uchun sud tuzilishi to'g'risida umumiy tushunchaga ega bo'lishi kerak.

Kalit so'zlar: Sud tibbiyot ekspertizasi, tergov, fuqarolik protsessual kodekslari, taftish jarayonlari, ekspertiza tayinlanishi, ekspertning huquqlari, ekspertiza turlari.

Annotation: Forensic medicine first appeared and developed due to the need to meet the requirements of jurisprudence. The essence of the forensic medical examination is the conclusion of investigations with a scientific and practical basis in response to the questions that arose during the search, investigation and trial processes related to the practical and theoretical issues and tasks of jurisprudence. Forensic medicine expert must have a thorough knowledge of criminal and criminal procedural civil codes, civil procedural codes in order to carry out expert work. The expert must have a general understanding of the structure of the court in order to correctly understand the tasks assigned to him, to understand his rights

and duties, and to know his place in the process of conducting court proceedings.

Keywords: *Forensic medical expertise, investigation, civil procedural codes, audit processes, appointment of expertise, expert's rights, types of expertise.*

Kirish

Sud tibbiyoti - tibbiyotning bir bo'limlaridan biridir. Dastlabki tergov va sud amaliyotida yuzaga keladigan tibbiy va biologik muammolarni o'rganadi.

Sud tibbiyoti fani dastavval huquqshunoslik talablarini qondirishga ehtiyoj borligi sababli paydo bo'ldi va rivojlandi. Huquqshunoslikning amaliy, nazariy masalalari va vazifalariga oid qidiruv, tergov hamda sud yurgizish jarayonlari davomida vujudga kelgan savollarga javoban ilmiy-amaliy asosga ega bo'lgan tekshirishlar xulosasi sud tibbiyoti ekspertizasi mohiyatini tashkil etadi. Sud tibbiyoti eksperti ekspertiza ishlarini olib borish uchun jinoiy va jinoiy protsessual fuqarolik kodeksi, fuqarolik protsessual kodekslarini puxta bilishi lozim. Ekspert o'z oldiga qo'yilgan vazifalarni to'g'ri tushunishi, o'z huquqi, burchini anglashi hamda sud ishlarini yurgizish jarayonida o'z o'rnini bilishi uchun sud tuzilishi to'g'risida umumiy tushunchaga ega bo'lishi kerak.

Sud — bu odil sudlov organidir. Sud tushunchasi sudya va xalq maslahatchilari, qonunda belgilangan hollarda sud raisi va sud a'zolaridan iborat sud tarkibini nazarda tutadi. Sud tibbiyoti bilimlarini sud, tergov, dastlabki taftish jarayonlarida ishlatilishi sud tibbiyoti ekspertizasi deb ataladi, sud tibbiyoti ekspertizasi ashyoviy dalillarni to'plab beradi. O'zbekiston jinoyat protsessual kodeksining tegishli moddalarida dalillar to'plash va ulardan foydalanish holida suz yuritiladi.

Kodekslar — bu qonunlar to'plamidir. Qonunlar majmui O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan ishlab chiqiladi va so'ng amaliyotga joriy etiladi.

Fuqarolik kodeksi — fuqarolik huquqining muayyan tizim asosida belgilangan ifodasidir.

Fuqarolik protsessual kodeksi — fuqarolar protsessual huquqi tizimini ifoda etuvchi qonunlar majmuasidir. Fuqarolik protsessual huquqi — fuqarolik huquqi, sudda fuqarolik ishlarini ko‘rish va hal qilish tartibini, sudning, sud ijrochisining va jarayon ishtirokchilarining faoliyatini tartibga soluvchi huquq sohasidir.

Jinoyat kodeksi — jinoyat qonunlari to‘plamidir. Kodeksning umumiy qismida jinoiy javobgarlikning asosiy prinsiplari, umumiy qoidalari, jinoyat tushunchasi, jazodan ozod qilish asoslari, sudlanganlik muhlatlari ko‘rsatilgan bo‘lsa, jinoyatning konkret sohalari va sodir qilingan jinoyat uchun belgilangan jazo chorasi, uning turlari jinoyat kodeksining maxsus qismida ifodalangan. O‘zbekiston jinoyat kodeksi davlat tuzumini, shaxsni va fuqarolarning huquqlarini jinoiy tajovuzdan qo‘riqlashni o‘z oldiga vazifa qilib qo‘yadi hamda jamoat uchun xavfli bulgan har qanday harakatlar jinoyat hisoblanishini aniqlaydi va jinoyat qilgan shaxslarga nisbatan qo‘llanishi lozim bo‘lgan jazolarni belgilaydi.

Ekspertiza tayinlanishi va o‘tkazilishi tartibi O‘zbekiston jinoyat protsessual kodeksi moddalarida aniq belgilangan. Ekspert xolisona va har tomonlama tekshiruv o‘tkazish asosida o‘z xulosasini bildiradi va buning uchun qonun oldida javobgarlikni o‘z bo‘yniga oladi. Ekspertning huquqi, burchi va mas’uliyati (javobgarligi).

Surishtiruvchi shaxs, tergovchi, prokuror va sud chaqirig‘iga asosan hozir bo‘lib, savollarga javoban xolisona fikrini ma’lum qilish sud tibbiyoti ekspertining burchi hisoblanadi. Agar berilgan savollar ekspertning mutaxassisligiga muvofiq kelmasa yoki fikrnoma (ekspertning fikri) berish uchun tegishli hujjatlar yetishmasa, unda u ekspertiza o‘tkazish mumkin emasligini aytishi, qo‘shimcha hujjatlarni talab qilishi mumkin. Ekspertning quyidagi huquqlari kafolatlangan:

- ish hujjatlari bilan tanishib chiqish;
- qo‘shimcha hujjatlarni talab qilib olish;
- tergov, sud suroqlarida qatnashib ayblanuvchi, sudlanuvchiga savollar berish

Metodologiya:

Ushbu tadqiqotda O'zbekistonda sud tibbiyoti ekspertizasining protsessual asoslarini o'rganish uchun quyidagi metodlardan foydalanildi:

1. **Huquqiy hujjatlarni tahlil qilish:** O'zbekiston Respublikasining tegishli qonunlari, kodekslari, qarorlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlari sud tibbiyoti ekspertizasi protsessining huquqiy asoslarini o'rganish uchun tahlil qilindi.
2. **Sud amaliyotini o'rganish:** O'zbekiston Respublikasi sudlarining sud tibbiyoti ekspertizasi bilan bog'liq bo'lgan sud qarorlari va hukmlari tahlil qilindi.
3. **Sud tibbiyoti ekspertlari bilan suhbat:** O'zbekiston Respublikasi sud tibbiyoti ekspertlari bilan suhbatlar o'tkazilib, ularning sud tibbiyoti ekspertizasi protsessi bo'yicha amaliy tajribalari o'rganildi.
4. **Statistik ma'lumotlarni tahlil qilish:** O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi va Oliy sudining sud tibbiyoti ekspertizasi bilan bog'liq bo'lgan statistik ma'lumotlari tahlil qilindi.

Olingan natijalar:

Tadqiqot elementi	Natijalar
Huquqiy asoslar	O'zbekiston Respublikasining "Sud ekspertizasi to'g'risida"gi qonuni, Jinoyat protsessual kodeksi, Fuqarolik protsessual kodeksi va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar sud tibbiyoti ekspertizasi protsessining huquqiy asoslarini belgilaydi.
Sud amaliyoti	Sud amaliyoti sud tibbiyoti ekspertizasining o'tkazilishi va ekspert xulosasining baholanishi bo'yicha turli xil yondashuvlarni ko'rsatdi.
Ekspertlar tajribasi	Ekspertlar sud tibbiyoti ekspertizasining o'tkazilishida ko'plab amaliy qiyinchiliklarga duch kelishlarini

	ta'kidladilar, masalan, ekspertiza o'tkazish uchun zarur bo'lgan resurslarning yetishmasligi va ekspert xulosasining sud tomonidan noto'g'ri baholanishi.
Statistik ma'lumotlar	Statistik ma'lumotlar sud tibbiyoti ekspertizasi sonining yildan-yilga ortib borayotganini ko'rsatdi.

Xulosa:

Tadqiqot natijalari O'zbekistonda sud tibbiyoti ekspertizasi protsessining huquqiy asoslari mavjudligini, ammo amaliyotda ko'plab qiyinchiliklar mavjudligini ko'rsatdi. Sud tibbiyoti ekspertizasining samaradorligini oshirish uchun qonunchilikni takomillashtirish, sud amaliyotini birxillashtirish va ekspertlarning malakasini oshirish zarur.

O'zbekistonda tuman, tumanlararo, viloyat, respublika sud tibbiyoti ekspertizasi bo'linmalari mavjud. Sud tibbiyoti muassasalari, sud tibbiyoti ekspertlari hamda sog'liqni saqlash muassasalari o'rtasida ma'muriy va xo'jalik tobeligi mavjud. O'zbekiston Respublikasida Sud tibbiyoti ilmiy-o'quv amaliy birlashmasi ixtiyoriy uyushma bo'lgani tufayli, uning tarkibiga kirgan kafedralar va ekspertiza byurolari o'z ma'muriy tobeligiga ega.

O'zbekistonda Respublikasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi va viloyat sog'liqni saqlash bo'limlarida sud tibbiyoti ekspertizasi byurolari mavjud Sud tibbiyoti ekspertiza byurosining tarkibiga quyidagilar kiradi:

- jabrdiyda, ayblanuvchi va boshqalar ekspertiza bo'limi yoki qisqacha aytganda tirik shaxslar ekspertizasi (ambulatoriya);
- murdalarni tekshirish bo'limi gistologiya bo'limchasi bilan;
- sud tibbiyotining daliliy ashyolarni tekshirish bo'limi (sud tibbiyoti laboratoriyasi) quyidagi bo'limchalari bilan:
 - Sud biologik tekshiruvi.
 - Fizik-texnik tekshiruvi.
 - Sud kimyosi tekshiruvi.

Sud tibbiyoti ekspertizasining obyektlari uch qismdan iborat: birinchidan,

tirik odam, yuridik terminologiya buyicha

- tirik shaxslar,
- murdalar,
- daliliy ashyolar, ya'ni turli qurol-aslahalar, buyumlar, ashyolar.

Sud tibbiyoti ekspertizasi turlari, ularni hujjatlashtirish. Sud tibbiyoti ekspertizasi, bu huquqbuzarlikni aniqlash va asoslab berish maqsadida uyushtirilgan ilmiy-amaliy tekshiruvidir. Dastlabki ekspertizadan keyin, tergov organlarining talablariga muvofiq ekspertlar qo'shimcha ekspertiza o'tkazishi mumkin. Tergov jarayonida yangi ma'lumotlar paydo bo'lishi qo'shimcha ekspertiza o'tkazilishiga asos bo'ladi. Ushbu holatlarda ekspert avval bergan xulosasiga aniqlik kiritadi. Ekspertiza takroriy (ikkilamchi) bulishi ham mumkin. Agar ekspertning fikri aniq va to'liq bo'lmasa yoki asossiz bo'lsa, unda tergovchi JPK ning tegishli moddasiga muvofiq takroriy ekspertiza belgilaydi. Takroriy ekspertiza o'tkazilishi uchun byuro ekspertizasidan sud tibbiyoti ekspertlari taklif qilinadi. Byuro tashabbusi bilan nazorat ekspertizasi ham o'tkazilishi mumkin. Masalan, byuro mutaxassislari o'tkazilgan ekspertizada kamchiliklar topsalar, unda tergov yoki sud organlarini bu haqida ogohlantirib takroriy (nazorat) ekspertiza o'tkazish lozim ekanini ta'kidlaydilar.

Ekspertiza hujjatlarini rasmiylashtirish eng muhim masalalardan biri hisoblanadi. Ekspertizada asosan ikki tur hujjat tuziladi. Hujjatning har bir turi qayd etilgan zaruriy qismlarning barchasini o'z ichiga oladi.

Tergov va sud organlari ekspertiza obyektni yozma yo'llanmasi bilan yuborsa, unda sud tibbiyoti dalolatnomasi tuziladi. Tibbiyot ekspertizasi surishtiruvchi, tergovchi yoki prokuror qarori bilan yoki sud ajrimi bilan o'tkazilsa, unda fikrnoma tuziladi.

Dalolatnoma va fikrnoma urtasida ma'lum farq bor. Dalolatnomaning oxirida ekspert o'z fikrini yozadi. Fikrnomaning oxirida esa ekspert o'z xulosasini chiqaradi. Kirish qismida ekspertizaning qaysi kun, oy va yilda, qayerda, qaysi muassasada o'tkazilganligi, obyektning kim tomonidan keltirilganligi, qaysi

tergovchi (kim) tomonidan qarorp (ajrim, yo'llanma) chiqarilganligi, qanday savollar qo'yilganligi, tekshirish materiallari qay holatda yuborilganligi, qaysi sud-tibbiyoti eksperti tomonidan ekspertiza o'tkazilganligi, uning staji, ilmiy darajasi, ixtisosi, shu qatori ekspertiza o'tkazish jarayonida ishtirok etuvchilarning ismi, sharifi yoziladi. Ikkinchi kismida —yig'in bayonida tekshirish olib borish usullarining mazmuni, tekshirilishi lozim bo'lgan obyektlarning to'liq nomini ifodalash, tekshirishda qo'llaniladigan ilmiy vosita va usullar haqida bayon qilinadi. Uchinchi, xulosaviy qismida (dalolatnoma tuzilsa) ekspertning tekshiruv natijasi haqida qat'iy fikri ifodalanadi. Ayrim vaqtlarda ekspert o'z xulosalarivi tasdiqlash uchun rasm, jadval va boshqa qo'shimcha ma'lumotlar bilan to'ldiradi. Fikrnomaning ikkinchi qismi (yig'in bayonining) yakunida ekspert va ekspertiza paytida qatnashgan kishilar imzo qo'yadilar. Xulosa qismidan keyin esa faqat ekspertning o'zi imzo qo'yadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Iskandarov A.I., Kuldoshev D.R. Yakubov X.X. «Tirik shaxslar sud tibbiy ekspertizasi» talabalar uchun ukuv uslubiy kullanma. –Toshkent : 2007y.
2. G'iyosov Z.A. Sud tibbiyoti. Tibbiyot oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik. - Toshkent, Global Books nashriyoti, 2018.
3. «Patologicheskaya anatomiya bolezney ploda i rebenka» (Pod red. T.E.Ivanovskoy i L.V. Leonovoy.- M. 1989.
4. Sudebnaya meditsina pod redaktsiyey G.A. Pashinyana. M.Moskva 2001god
5. Sudebnaya meditsina i sudebnaya psixiatriya Paukov V.S., Jivoderov N.N. M.Moskva. 2000g.
6. Sudebnaya meditsina pod redaktsiyey Tomilina. Moskva. 2000g
7. Praktikum po sudebnoy meditsine i testoviy kontrol pod redaktsiyey Kryukova P.M. 1998.
8. A.I. Iskandarov, D.R. Kuldoshev., Sud tibbiyoti; Uchebnik dlya vuzov. Tashkent; "MERIYUS" XMNK. 2009.

9. Shamsiyev E.S. Iskandarov A.I i dr. Sudebnaya meditsina: Uchebnik dlya vuzov.- Tashkent: TGYUI ,2003.
10. Jalolov J.J “Sud tibbiyoti: Darslik” - Tashkent: 1-ToshDavTi.1996.
11. “Sudebnaya meditsina”: Uchebnik dlya vuzov. (Uchebnik pod red. prof. V.N.Kryukova), M.Meditsina, 1990).
12. Atlas po Sudebnoy meditsine. Soloxin A.A., Smolyaninov V.M., Shirinskiy P.P., Melnikov Yu.L. M.; Meditsina 1981, 264 s.
13. Jalolov J . J.Sud tibbiyoti: Tibbiyot in-tlari talabalari uchun darslik.— T.: Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashr, 1996.
14. Sudebnaya meditsina pod redaktsiyey Tomilina. Moskva. 2000g
15. Praktikum po sudebnoy meditsine i testoviy kontrol pod redaktsiyey Kryukova P.M. 1998
16. Ziauddin, F. (2024). Localization Through Optical Wireless Communication in Underwater by Using Machine Learning Algorithms.
17. Ziauddin, F. (2023, October). Multi-objective African Vultures Optimization for Energy Efficient Wireless Sensor Network. In 2023 International Conference on Evolutionary Algorithms and Soft Computing Techniques (EASCT) (pp. 1-7). IEEE.